



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARIGA EGA BOLALARGA TA'LIM TARBIYA BERISHNING TAMOYILLARI

Saydaliyeva Mavluda Raxmatjon qizi

Farg'ona viloyat pedagogik mahorat markazi maktabgacha
ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxasisi

Annatatsiya:

Ushbu maqola xozirgi davrda dolazarb bo'lib kelayotgan inklyuziv ta'limning o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishdagi zamonaviy usul va vositalari haqida umumiy ma'lumot va tushunchalar beradi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar, bolalarga ta'lim berish usullari, ta'lim-tarbiya, rivojlatiruvchi ta'lim usullari, korreksion pedagogika

So'ngi o'n yilliklar davomida O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimiga inklyuziv ta'lim atamasi yaqin yillar davomida kirib kelayotgan atama hisoblanadi. Yangi atama bo'lishga qaramasdan o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda quyidagi ta’rif kiritilgan: “Inklyuziv ta’lim - bu alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilarning ta’lim olishdan teng foydalanishini ta’minlashdir”.

Alohida ta’lim olish ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarda korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- Har bir bolaga individual yondashuv
- Jarayonning tizimli va izchilligi
- Faoliyat va ong - bolalar salomatligini yaxshilashning yangi, samarali usullarini izlashda butun jamoa va ota-onalarning ishtiroki.
- Charchoq paydo bo‘lishining oldini olish, turli xil vositalardan foydalanish (aqliy va amaliy faoliyatni almashtirish, materialni kichik dozalarda taqdim etish, qiziqarli va rang-barang didaktik materiallar va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish).
- "Zarar qilmang" - bolalarni oddiy, qulay, xavfsiz va samarali usullar va vositalardan foydalanishga o‘rgatish.
- Imkoniyati cheklangan bolalarning kognitiv faoliyatini faollashtirish.

Bolalar uchun eng muhim faoliyat bu - erkin o‘yindir. Ko‘pincha, bolalar qoidalar bilan o‘yin o‘ynashadi - rolli o‘yinlar va tarbiyachining vazifasi o‘yinning o‘ziga kamroq aralashish, shunchaki bolalarning o‘yin faoliyatiga qiziqishini



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishdir. Bola tug'ilgandan toki yetti yoshga to'lguniga qadar bola dunyoni aql bilan emas, balki tajriba va taqlid orqali anglaydi. Tarbiyachilar va bolalar bilan muloqot qilish, o'ynash, rasm chizish, ovqatlanish orqali bola atrofdagi haqiqatni o'zlashtiradi va uning qo'llari, boshi va qalbidan o'tadigan katta tajribaga ega bo'ladi va uning his-tuyg'ulari, fikrlari, harakatlari va intilishlari uchun asos yaratadi.

Maktabgacha ta'limda alohida ta'lim olish ehtiyojiga ega bolalar bilan qo'llaniladigan qator samarali usular mavjud jumladan:

- tushuntirish-illyustrativ (axborot-reseptiv);
- reproduktiv;
- qisman qidiruv (evristik);
- muammoli taqdimot;
- tadqiqot.

Alohida ta'lim olish ehtiyojiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan psixokorreksiya ishlarida eng samarali va keng tarqalgani bu art terapiya:

- musiqa terapiyasi
- izoterapiya
- vokal terapiyasi
- ertak terapiyasi
- kinesiterapiya
- qum terapiyasi.

Ushbu terapiyalarni qo'llashda bolalarning kasalliklari inobatga olib qo'llansa albatta samaradorligi katta bo'ladi. Bunda ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar uchun vokal terapiyasi, ertak terapiyasidan foydalanish, miya falaji mavjud bolalar uchun xoreoterapiya, ertak terapiyasi va vokal terapiyasi samarali natija ko'rsatadi. Musiqa terapiyasi, kineziterapiya, ayniqsa tuzatuvchi ritm, raqs terapiyasi, qum terapiyasi deyarli barcha turdagi buzilishlar (nutq, eshitish, ko'rish, aqliy zaiflik, aqliy zaiflik, miya yarim palsi) uchun ijobiy natijalar beradi. Rivojlanishida muammolari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion ishlarda art-terapiya usullaridan foydalanishning eng sezgir yoshi 5-7 yosh, ba'zi hollarda ish 4 yoshdan boshlab amalga oshirilishi mumkin. Bu yoshda bola allaqachon nutq va vosita ko'nikmalarini, badiiy faoliyatdagi asosiy ko'nikmalarni shakllantirgan va



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

o‘z-o‘zini anglash rivojlanayotgan bo‘ladi, bu art-terapiya usullarini qo‘llash uchun asosdir.

Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining II bob 2.4 bandida Ta’lim olishda alohida ehtiyoj mavjud bolalarga ta’lim va tarbiya berish yuzasidan quyidagi fikrlar berilgan.

Davlat o‘quv dasturi har bir bolaning ta’lim, tarbiya, rivojlanish, himoya va faol ishtirok etishdan teng foydalanish huquqlarini tan oladigan inklyuziv o‘quv dasturi hisoblanadi. Davlat o‘quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim olish, rivojlanish va muloqotda qo‘shimcha yordam ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Maktabgacha ta’lim tashkilotida alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolani ta’lim olishi va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash – bu MTTning direktori, pedagog va mutaxassislari tomonidan tashkil etiladigan jamoaviy ish.

Zarur bo‘lganda, maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik jamoasi va rahbariyati tor mutaxassislarni jalb qilgan holda, bola rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolaning yakka tartibdagi rejasini 2 yaratadi. Inklyuziv yo‘nalishdagi ta’lim va tarbiya jarayoni davlat o‘quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, uning asosida individual-moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Bunday individual inklyuziv dasturda alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning ta’lim olishi, rivojlanishi, ishtiroki va farovonligi uchun barcha mumkin bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf etadigan o‘quv muhiti va o‘qitish usullarini moslashtirish zarur

Xulosa o‘rnida maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog‘lom bolalar qatoriga qo‘shib sifatli ta’lim olishini ta’minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

-
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020
 3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
 4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
 5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
 6. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yill. Amonashvili Sh. A. “Shoshiling, bolalar, biz uchishni o‘rganamiz” 2005- 329 b.
 7. “Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish” F.Umarova